

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASI KAFEDRASI

ABDAKIMOVA ZEBINISO AKTAMQULOVNA

**BOSHLANG'ICH SINIF MEHNAT DARSLARIDA APILIKASIYALAR
BILAN ISHLASHDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA
O'RGATISH METODIKASI**

5111700-boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o`qit. Salimov A.

Bitiruv malakaviy ishi boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2015 yil «___» maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №___).

Kafedra mudiri

dots. Shodiyev F.T.

Bitiruv malakaviy ishi YADAKning 2015 yil «___» iyundagi majlisida himoya qilindi va «___» balga baholandi (bayonnoma №___).

YADAK raisi

p.f.d., Tadiyev M.

A‘zolari

Samarqand – 2015

**BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT DARSLARIDA APPLIKASIYALAR
BILAN ISHLASHDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA
O'RGATISH METODIKASI**
Reja

Kirish

**I BOB. BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT DARSLARIDA
APPLIKASIYALAR BILAN ISHLASHNING XUSUSIYATLARI**

- 1.1 Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash turlari..
- 1.2. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashning ahamiyati
- 1.3. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash usullari

**II Bob. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash orqali
o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish yo'llari**

- 2.1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari
- 2.2. Mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashga doir bir soatlik dars namunasi ...

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy g'oyasi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi. Barkamol shaxsning muhim sifatlari bo'lgan mustaqil va ijodiy fikrlash, ishlash qobiliyatlarini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Milliy modelning markazida shaxs sifatlari turar ekan ta'lim metodlarini shu asosida tanlash va qo'llash ishlarini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada o'quvchilarning faolligini oshirish, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan mehnat ta'limi darslari yoshlarni hayotga, kasb-hunarga tayyorlashda muhim o'ringa ega. Shu sababli keyingi paytda bu sohada ham bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonunning 6 – moddasida "Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb xunar, oliy ta'lim mazmuni va sifatiga quyiladigan minimal talablarni belgilaydi" deyiladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Unda:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;

- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.¹

Bugungi davrimizga, kunimizga, chuqur va teran nazar tashlar ekanmiz, bugun biz tez suratlar bilan o'zgarib baroyotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayotganligimizdan va bu zamon keskin o'zgarishlar va ulkan imkoniyatlarni yuzaga chiqarish pallasiga ekanligiga amin bo'lamiz.

Xalqimiz va davlatimiz, har qaysi inson nimaniki o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan bo'lmaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha oliyjanob harakatlarning negizida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turishi tabiiy.

Shu maqsaddan kelib chiqib, ta'lim tizimida ham bir qancha islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, o'sib kelayotgan kelajak avlodning ta'lim – tarbiyasiga bosh vazifalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, yurtboshimiz “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ham **“Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”** – deb bejizga aytib o'tmaganlar.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek “Vaholanki, bolaning dunyo qarashi, didi, saloxiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirilib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni. //Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: „Sharq“,1997.-20-bet.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kiyerak? Bola 1- 4- sinflarda qanday bilimga ega bo'lishi lozim? Ularning tarbiyasi qanday bo'lishi kerak? Shu masalalarga javob topishi lozim”.

Umumiy o'rta ta'limning ishlab chiqarish bilan uzviy jihatlarini aniqlash natijasida yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan extiyoj ortib bormoqda mazkur extiyoj zamirida o'qitish uslublarini takomillashtirish ta'lim nazaryasining amaliyot bilan uzviyligi xamda didaktikaning ilmiylik, tizmlilik ketma - ketlik, izchillik va ko'rgazmalilik kabi tamoillarni bog'lash birinchi o'ringa chiqdi. Haqiqatdan ham ta'lim – tarbiya mazmuni pisixologiya, pedagogika, didaktika kabi fanlarning muhim xususiyatlarni hisobga olib, o'quvchining real bilish qobiliyatini o'rganish dolzarb mavzuga aylanib boryapti.

O'quvchilar o'zlarining barcha tug'ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga erishish uchun sarf qiladi va bu yo'lda o'zini qurshagan tabiat hodisalaridan foydalanadi, ularni o'ziga xos bo'ysundiradi. Buning uchun ilm fanni, to'g'ri hunarlarni o'rganadi.²

O'tmishda ota onalar bola yoshlikdan mehnatga o'rgatilmasa unda mehnatga qiziqish uyg'otilmasa katta bo'lganda mustaqil xayot kechira olmasligini, dangasa va ishyoqmas bo'lib qolishni yaxshi bilganlar. Shu bois ular bolani yoshlikdan turli ijtimoiy, foydali va unumli ishlarga jalb qilishda eng avvalo, mehnatning faqat moddiy jixatini emas, balki tarbiyaviy axloqiy va ma'naviy axamiyatini xisobga olganlar. Ota – onalar bolariga jinsiy xususiyatlariga qarab topshiriq byerishni mehnat tarbiyasida asosiy qoida deb bilganlar. Qizlar uy ro'zg'or ishlarini bajarishda – kiyim bichim tikish, ovqat pishirish, uyni ozoda tutish, uy xayvonlariga qarash, kir yuvish, myexmon kelganda dasturxon yozish kabi ishlarga o'rgatilgan. O'g'il bolalar esa ro'zg'ordagi og'ir ishlarni bajarishga, o'tin yorish, mollarga yem xashak

² Farobiy “Fozil odam shaxri”, Toshkent “O'zbekiston” nashriyoti 1993 yil 62-bet

tayyorlash bilan shug'ullanganlar, qo'sh xaydash va boshqa yumushlarda ko'maklashganlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim tarbiya berishda mehnat an'alariga ijobiy munosabat o'yg'otish muxim ahamiyatga ega. Shu bois bu mas'uliyatli ishni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining e'tiborini ijtimoiy foydali mehnatga tortish, ularda qiziqish va ijodiy intilish ko'nikmalarini shakllantirish, bizningcha ularni kasblarga yo'naltirishning turli shakl va usullaridan foydalanish – xalq pedagogikasi muammolaridan biri qilib belgilanishi kerak.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”⁵ ning asosiy talablaridan biri – o'tmish merosimizni o'rganish, qadriyatlarimizni tiklash va xalqimizning milliy madaniyati va ma'naviyatini o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirishda davr talabiga monand qilib shakllantirishdan iborat.³

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ilmiy kasblar bilan tanishtirib borish jarayonida ularning mehnatga qiziqish faoliyatini taxlil qilish nazarda tutilgan. Mazkur muammo dolzarbligini xalq etishda pedagogika fani bilan bir qatorda mehnat ta'limi, psixologiya fanlarining nazariy va amaliy xulosalari umumlashtirilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mehnat an'alariga qiziqtirishni shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar tayyorlashni taqozo etadi.

Hozirgi kunda o'quvchilarning ijtimoiy mehnatga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda mehnat ta'limining ba'zi yo'nalishlarida matematika, biologiya, kimyo, fizika va boshqa umumta'lim fanlarining nazariy asoslarini amaliyotda qo'llash, shuningdek mehnat tarbiyasini yoshlik davrdan boshlab olib borish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Bu borada, boshlang'ich sinflarda badiiy mehnat darslarining o'quvchi ta'lim – tarbiyasidagi o'рни beqiyosdir. Boshlang'ich sinflarda mehnat

³ Boshlang'ich ta'lim jurnali” 2011 yi 1-son 26-bet

darslari orqali o'quvchilarning g'oyaviy – siyosiy, estetik didi. Aqliy, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirish g'oyat katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda mehnat darslari orqali o'quvchilar maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarni egallaydilar, borliqni va san'at asarlarini estetik jihatdan idrok etishni o'rganadilar va bu ularning fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinflarda mehnat darslari mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.

O'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish uchun material tanlashda o'quvchilarning yoshini, ularning rivojlanish xususiyatlarini, milliy qadryatlarimizni, tabiat ishlab – chiqarish va boshqa – boshqa shart – hisobga olish darkor.⁴

Boshlang'ich sinflarda mehnat o'quv fanining maxsus vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quvchilarda tevarak – atrofdagi narsa va voqyealarga estetik munosabatini tarkib toptirish, ularni go'zallikni his qila olishga, tushunishga hamda shu his va tushunchalarni hayotga tatbiq etishga o'rgatish;
- badiiy madaniyat ko'rinishlari va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati halqidagi tushunchalarni rivojlantirish;
- estetik va badiiy – amaliy malakalarni shakllantirish.

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash alohida ahamiyat kasb etadi. Applikasiya bilan ishlashda o'quvchilarning badiiy ijodkorligini o'stirish va rivojlantirish, ularda tasviriy hamda texnik ko'nikmalar hosil qilish, mazkur faoliyat turiga qiziqish o'yg'otish muhim vazifalardan biridir.

⁴ Boshlang'ich ta'lim jurnali” 3/2011 yil 31-bet.

Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorgarlik darajasini o'rganib borish o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim – tarbiyasidagi eng zarur vazifalardan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir. Boshlang'ich sinf mehnat darslari orqali o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan mehnat, qo'l mehnati hisoblanadi.

Mehnat ta'limida ko'rgazmalilik alohida ahamiyatga ega. aynan ushbu bitiruv malakaviy ishida ko'rgazmalilik asosida boshlang'ich sinflarda applikasiya bilan ishlash, uning qanchalik kelajak avlodning ta'lim – tarbiyasi uchun zarur ekanligini o'rganishga harakat qildim.

Applikasiya ishlari doimo xotirada saqlanishi, qoida sifatida bajarilishi bilan ma'lum izchillik asosida amalga oshirilishi bilan farq qiladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi ham aynan mana shunda. Istalgan applikasiyani olmang, u applikasiya syujetini tanlashdan boshlanib, undan keyin applikasiya eskizi, qohoz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo'yish, yelimlash va nihoyat quritish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Demak, o'quvchilr applikasiya ishlari bilan shug'ullanishlari orqali nafaqat qo'l mehnatiga, ijodkorlikka, badiiy didning rivojlanishiga, estetik didning uyg'unligiga, ularda applikasiya ishlari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga katta omil bo'ladi va o'rganadilar.

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan taraqqiyotini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Ta'lim to'g'risidagi qonunning “Umumiy ta'lim bo'limi, 2 – moddasida ham bu haqda shunday deyiladi: “Umumiy ta'lim uzluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'g'in bo'lib, ta'lim o'quvchilar uchun ilmiy bo'lim, mehnat va boshlang'ich kasb ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini

egallashlarini, shuningdek o'z ijodiy qobiliyatlarini va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta'minlaydi".

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida qo'l mehnati jarayonida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilar asosan, ishlab chiqarish texnologiyasini, chiqindi qog'ozlar, karton, gazmol, rangli qog'ozlar bilan ishlash, tabiiy va sun'iy xom ashyolar, yelim, qaychi va hakazolar bilan ishlashga o'rganadilar.

Bularning hammasi o'quvchilarga qo'l asboblari bilan ishlash, har xil xomashyolardan foydalanishning ma'lum ma'naviy – ta'limiy tarbiyaning to'plashiga imkoniyat beradi. Bu esa mehnatining qadrini va ma'nosini tushunishga, mehnat – o'quvchilarning ijodiy qiziqishlarini shakllantirishga yordam beradi.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Al Xorazmiy, Al Buxoriy, Farobiy, Al Farg'oni, At – Tyermizi, Ibn Sino, Byeruniy, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos Xojib, Alishyer Navoiy, Bobur kabi buyuk mutafakkirlar tomonidan yaratilgan noyob asarlarda bolalarni yoshligidan boshlab mehnat an'alariga qiziqtirish mazmuni o'z tasdig'ini topgan.

Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar ilmiy myerosinig muayyan qismini ta'lim tarbiya, xususan, mehnat tarbiyasiga oid ma'lumotlar tashkil etadi. Shu boisdan yondashilganda o'tmish xalq adabiyotida yaratilgan qahramonlarni ulug'lash vaqti keldi. Masalan, To'maris Shiroq, Spetamyen, Jaloliddin Magnuberdi, Temur Malik, Ulug'bek, Bobur va boshqa bobokalonlarimizning xayot yo'llarini boshlang'iyach sinf o'quvchilarida yoshlikdan boshlab xalq qaxramonlariga xurmat bilan qarash ularni ezozlash, mehnat an'alariga qiziqish milliy va umumbashariy qadriyatlarini tiklash kabi tuyg'ularni uyg'otish zarur.

Respublikamizda va boshqa davlatlarda boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashning usullari va turlari haqida hamda

applikasiya mavzusiga tegishli o'ziga xos bo'lgan boshqa muammolari xususida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. R.Mavlonova, O.Goroxova, L.Ogulidzina, L.K.Sheblknn, B.L.Romanina, L.L.Kazakova, M.M.Shumelivich, R.Hasanov, H.Egamov va boshqalarning tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Biroq, nazariy va amaliy tahlil ta'lim muassasalarining faoliyatlari bilan bevosita tanishish mazkur ishda bir qator kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Ular: ilmiy asoslangan holda ta'lim muassasalarida, boshlang'ich sinflarda applikasiya bilan ishlash yo'llarida, samarali omillarning asoslanganligi, applikasiya bilan ishlashning eng yuqori samaradorligiga erishish uchun, hozirgi paytda ta'lim – tarbiyada qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilmaganligi qator kamchiliklarni keltirib chiqardi.

Myexnat va polityexnik yo`nalishlari bo`yicha pedagog olimlardan P.R.Atutov, K.Sh.Axiyarov, L.F.Axmatov, S.M.Batishov, Yu.K.Vasil'yev, V.A.Polyakov, A.I.Vorab'yev, E.T.Choriyev, U.Nishonaliyevlar psixolog olimlardan mazkur muammoning ayrim yo`nalishlariga oid tadqiqot ishlarini L.I.Bojaovich, A.G.Kovaliyev, A.N.Lyeon'yev, A.E.Pyetrovskiy, V.V.Davyedov, M.G.Taychyenov, M.G.Davlyetshyen sotsiologiyalaridan V.A.Andyeyeryeva, I.B.Shchatkin, V.P.Fyevanov o`zbek pyedagog olimlaridan R.X.Djurayev, O.Xayitovlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari etiborga molik. Ammo ular ilmiy tadqiqot ishlarida mehnat va ta'lim tarbiyasini hamda ijtimoiy foydali, unumli mehnat mazmunini, uning shakli va uslublarini umumiy holda asoslanganlar. Lekin boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darsini mehnat ta'limiga bog`lab o`quvchilarni mehnat an'analariga qiziqtirish, ular faoliyatini shu asosda shakllantirish bo`yicha aloxida ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan. Demak, MBIning maqsadini

shakllantirish, mehnat darslarini tashkil etishda mehnat an'alarining o'rnini va roliga aloxida e'tiborini qaratish zarur.

Mazkur tadqiqot muammosining ilmiy konsepsiyasi P.R.Atutov, A.I.Vorob'yev, A.E.Klyemov, R.A.Mavlonova, U.Nishonaliyev, S.Ochilov, O'.Q.Tolyepov, O.Xaiyetov, M.E. Xaydarov, I.T.Choriyevlarning nazariy va amaliy yo'nalishlari asosida shaxs kamolotini o'rganishda boshlang'ich debocha belgilandi.

BMI ning maqsadi: boshlang'ich sinflarda, o'tiladigan applikasiya mavzusi, mehnat ta'limi fanining maqsadi – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, aqliy va jismoniy mehnat turlarini anglash, mehnatni qadrlash, applikasiya turlarini o'rganish orqali tabiatni anglash, uni o'rganish, mehnatsevarlikni shakllantirish hisoblanadi.

BMI ning vazifalari:

1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning nazariy asoslarini aniqlash;
2. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rgatishni shakllantirishning samarali metod va vositalarini, turlari va usullarini asoslash;
3. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashning andozasini ishlab chiqish;
4. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarining samaradorlik darjasini tajriba – sinov asosida aniqlash;
5. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilar mustaqil fikrlashlarining samaradorligini kafolatlovchi ilmiy – metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

BMI ning obekti:

Maktablarda boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash usullarini boshqarish jarayoni.

BMI ning predmeti: Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash mazmuni, metod va vositalari.

BMI ning metodlari: Boshlang'ich sinflarda applikasiya bilan ishlash mavzusi muammolariga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, nazariy – qiyosiy tahlil; suhbat; pedagogik kuzatish; pedagogik tajriba; ko'rgazmalilik; zamonaviy pedagogik texnologiyalar; muammoli vaziyat.

BMI ning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “2004 – 2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida olg'a surilgan boshqaruv yo'nalishidagi ilmiy g'oyalar, hukumat tomonidan ta'lim tizimini boshqarish borasida qabul qilingan huquqiy – me'yoriy hujjatlar, shu yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borgan pelagog olimlarning nazariy qarashlari.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishning xulosa va bildirilgan tavsiyalaridan umumta'lim maktab o'qituvchilari o'zlarining dars jarayonida, talabalar kurs ishi tayyorlashda, metodistlar ma'ruza matnlari tuzishda shuningdek, pedagogika kollejlari metodist o'qituvchilari va talabalari o'z ishlarida qiziqtirgan savollariga javob topishlari mumkin.

BMI ning ilmiy yangiligi:

1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rgatishning muammosi, dastlabki BMI laridan biri sifatida pedagogik nuqtai nazardan himoya etildi;
2. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarining nazariy asoslari yoritildi;

3. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning samarali metod, vosita va turlari aniqlandi;
4. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatishning yo'llari va turlarini o'rganishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beruvchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bir soatlik noan'anaviy dars ishlanmasi ishlab chiqildi.

BMI ning tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 ta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi ____ betni tashkil etadi.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF MEHNAT DARSLARIDA

APPLIKASIYALAR BILAN ISHLASHNING XUSUSIYATLARI

1.1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash turlari

Applikasiya ishlari albatta rangli qog'ozlar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi. Sanoat qog'ozning rangi va fakturasiga ko'ra farq qiluvchi 250 navini ishlab chiqarmoqda.

Tolalarning ko'ndalang yo'nalishi bo'yicha qirqilgan qog'oz yopishtirilganda izlar qoldiradi. Uzunasiga qirqilganda birtekis yaxshi yotadi. Ishlaganda qog'ozning bu xususiyatini ko'zdan qochirmaslik kerak. Applikasiya yasash usullarining bir qancha turi bor. Shulardan: dekorativ, geometrik, ornament, badiiy, tematik va boshqa applikasiya haqida bitiruv malakaviy ishimizda to'xtalib, ular haqida tushunchalar yoritib berishga harakat qildik.

1.Dekarativ applikasiya – u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida – alohida tasvirlar (barg, shox, qoziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar) dan tarkib topuvchi predmetli, hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin.

2.Geometrik shaklli applikasiyalar. Bajarilish texnikasiga ko'ra applikasyaining eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikasiyalardir. I – III sinf o'quvchilari geometrik shaklli applikasiyalarni bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar:

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylana qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydilar.
2. Badiiy didni o'stiradilar, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.
3. Ayrim predmetlarni detalma – detal tahlil qilib, geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar. Masalan, archa bir – biriga kiygazilgan

uchburchakka o'xshaydi yoki yuk mashinasi turli o'lchamdagi to'g'ri burchaklardan, g'ildiragi aylanadan tashkil topgan. Ko'pgina predmetlarni ana shunday tahlil qilish va ularni geometrik shakllar yordamida qog'ozda tasvirlash mumkin.

4. Bolalarning “ko'p”, “kam”, “uzunasiga”, “ko'ndalangiga”, “qism” va “qatlam”, “ikki qismga qirqish”, “to'rt qismga”, “teng qismlarga” kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

5. Bolalar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geometrik shaklli applikasiyalarni ham dekorativ – ornament, predmet, syujetli applikasiyalarga ajratish mumkin.

O'quvchilar yuajaradigan birinchi ish – bu qog'oz bo'lagi, kvadrat, doira, to'g'ri burchak hamda ovaldan turli geometrik shakllarni yasay olishdir. Bu ishni bajarish uchun o'quvchilarni rangli varaqdan bo'lakni qirqib oladilar. Buning uchun ular varaqning har ikkala tomoniga bir xil masofada nuqtalar qo'yadilar va ularni chizg'ich bilan birlashtirib, qog'oz polosasini shu chiziq bo'yicha qirqib oladilar. Qirqib olingan qog'oz chetlarini buklash bilan kvadratlar olinadi. Applikasiya yopishtirilganda qog'oz ikkiga buklanadi va buklangan joyini silab iz tushiriladi. Qog'ozni ochib iz bo'yicha yopishtiriladi, so'ngra keyingi kvadratdan taxlash yo'li bilan 4 ta kvadrat olinadi va ular ham yopishtiriladi. Keyin kvadratdan uchburchaklar qirqib yopishtiriladilar. Navbatdagii darsda o'quvchilar geometrik shakllardan ornament yasashlari mumkin.

O'quvchilar har xil rangdagi 2 ta qog'ozdan 4 ta kvadrat qirqadilar. Ornament yelimlanadigan qog'ozni tayyorlab. O'rtasiga chiziq tushirib kvadratni, shu chiziq bo'ylab joylashtiriladilar.

Ish ijodiy bo'lishi mumkin.

O'qituvchi doskaga kvadratdan yasashi mumkin bo'lgan ornamentning bir necha usullarni ko'rsatadi.

Kuni uzaytirilgan guruhlarda uchburchak yoki shunga yaqin shakllardan geometrik applikasiya yasash mumkin.

Bolalarning predmetlarni fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Bizni o'rab turgan narsalar: uy, daraxt, mashina, idish – tavoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O'qituvchi predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda ko'rib, uning ayrim detallari qaysi geometrik shakllarga o'xshashligi, ularni qanday o'lchamlarda, qaysilari kattaroq, qaysilari kichikroq ekanligini. Qanday izchillikda joylashtirish kerakligi aniqlanadi. O'quvchilarni doira va ovalni to'g'ri, tekis holda qirqishga o'rgatishdir.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikasiya bo'yicha juda ko'p geometrik shakllarni, ularni bajarish mumkin.

Doiralarning har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan usul paydo bo'ladi. Ishni qoziqorin, pufak kabi oddiy shakllarni bajarib 1 – sinfdanoq boshlashi mumkin.

2 – 3 – sinflarda murakkabroq ishlarni bajarish, masalan berilgan radiusdagi doira qismlarga bo'lish mumkin.

Bu ish o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurlarni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi.

3. Ornamentli applikasiya. Eng oddiy applikasiya bu geometrik figuralardan qilingan ornamenttal applikasiyadir.

Shakliga ko'ra ornamentlar cheksiz va cheklangan bo'ladi. Cheksiz ornamentda uni tashkil etuvchi ayrim elementlar ritmik yoki simmetrik almashinib turadi. Bu elementlarning rangli, shakli bir xil bo'lishi mumkin.

Cheklangan ornamentda bir shakl – kvadrat, to'g'ri burchak, doira va shu kabilar ishga joylanadi yoki erkin kashponavka qilinadi. Undagi elementlar ham huddi fazoviy uyg'unlikda bo'lishi mumkin.

O'zbek milliy ornament ustida to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston xalq amaliy san'atida ham cheksiz, ham cheklangan naqshning asosiy elementlari – g'o'za bargi, paxta chanog'i, paxta guli, quyoshni ifodalovchi doiradir.

Buralib ketuvchi chiziqlar go'yoki nozik shoxlardek elementlarni bir – biri bilan birlashtirib naqshga o'ziga xos xususiyat baxsh etadi.

O'zbek naqshining hoshiyasidagi ochilgan paxta chanog'i bir element barsh – ikkinchi yarim ochilgan chanoq – uchinchi elementdir.

Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash.

Ornament detallari turli o'lchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadilar. Kvadratda naqsh diogonal bo'yicha tuziladi. Bunda naqshlarni simmetrik joylashtirish qulay. Doirada naqsh markazdan radiuslar bo'yicha tuziladi. O'quvchilar har xil rangdagi 2 ta qog'ozdan 6 ta kvadrat qirqadilar. Ish ijodiy bo'lishi mumkin. O'qituvchi doskada kvadratlardan yasashi mumkin bo'lgan ornamentning bir necha variantlarini ko'rsatadi va o'z ornamentlarini topishni bolalarga havola qiladi.

Kuni uzaytirilgan guruhlarda uchburchak yoki shunga yaqin shakllardan ornamentlar yasash mumkin.

4. Badiiy applikasiya – tematik ishlarni yaratishda faqat mehnatni emas, badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi.

Mehnat ta'limi darslarida applikasiya ishlarini bajarish texnikasini yaratadi.

Plakat applikasiyasi tematikaning elementlarini o'quvchilar turli bayramlarga bag'ishlangan tabrik telegrammalari, yo'l belgilari va shu kabilar tarzida bajaradilar.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlandi. Ko'pincha qutiga ochiq tondagi qog'oz fon tarzida tanlanadi.

Applikasiya qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar qog'ozni tanlashni belgilaydi.

Asarni yaratish ustida ishlaganda asosiy e'tiborni tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi.

Asarni yaratish hajmiga ko'ra eng katta element asosiy mavzu elementi bo'lishi kerak.

Buklash yo'li bilan yaratilgan ko'rsatmali qurollar va ularning yasash yo'llari.

5. **Tematik applikasiya.** Tematik applikasiya ma'lum mazmunni aks ettiruvchi, badiiy asar uchun ilyustrosiya applikasiyali plakat bo'lishi mumkin.

Badiiy tematik applikasiya ish predmetlari formasini, asosiy praporsiyasini qismlarga o'zaro aloqasini manzara va narsalarning hajmini, rangini soya va yorug'lik tushayotgan tomoniga munosib rang berib ko'rsatish kabilarni ifodalash kerak. 1 – sinflar uchun oddiy qog'oz yoki tabrik taklifnomalar bajarilgan ish mazmunini umumlashtiruvchi ish bo'lishi mumkin.

6. **Mozayka applikasiya.** Mozayka manumental dekorativ san'at asarlaridan biridir. Turli davrlarda, turli mamlakatlarda mozayka qo'llaniladigan materiallarga ko'ra ham, naqshi va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. o'rta Osiyoda madraslar, hukmdorlar saroylari mozayka bilan bezatilgan. Mozayka hozirgi kunda manumental san'at asarlariga aylangan. Mozayka bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va xalq amaliy san'at asarlari bezatiladi.

Mozayka ishlarida qog'oz, oyna, sopol. sopol plitalar, gultoji barglar, meva urug'lari, tuxum po'choqlari va boshqalardan foydalanilgan.

Mozayka rasm sathiga yarim – yarim qilib yopishtiriladi. Turli meva – cheva, savzavot – poliz ekinlarining urug'laridan, baliq tanganlari, chig'anoq, mayda toshlardan mehnat darslarida xilma – xil applikasiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda turli xil materiallardan birgalikda foydalanish mumkin.

Mozayka ko'pincha – koshin naqsh ham deyiladi. Keyingi kunda yog'ochning turli navlaridan ham mozayka qilish keng tarqalgan. Yog'och mozayka jamlanmasi juda qiziqarli zamonaviy turidir.

Mozayka bilan mebellarni, jurnal stollarni, yodgorliklar va ko'pchilik shu kabi narsalarni bezash mumkin. Mehnat darslarida mozayka ishlarida qoldiq chiqindi materiallardan ham foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash turlari shulardan iboratdir.

1.2. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashning ahamiyati

Applikasiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

“Applikasiya” tushunchasi xususiyatlari va faktura materiallariga ko'ra xilma – xil bajarilish texnikasining o'xshashligi bilan barlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini o'z ichiga oladi. Har bir material applikasiyasi bajarish texnikaiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qog'oz, limon, daraxtlar po'stloqlari fonga turli yelimlar bilan yopishtiriladi.

Applikasiya – badiiy asarlarni yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvirning realistik asosi saqlanadi. Bu applikasiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, suvernirlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlash emas, balki kartina, pano, naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo'llash imkonini beradi.

Applikasiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlarda paydo bo'lgan. Applikasiya bilan keyim – bosh, turar joylar bezatilgan. Bu ishda ular teri – mo'yna, namatdan foydalanishgan.

Applikasiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan: yoqutlar applikasiya ishida po'stloqdan foydalanishgan, bo'yalgan po'stloqdan qilingan applikasiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan. Xanti – mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikasiyada teri, sukno, mo'yna ishlatishgan.

Qami, qozoq, qalmiq, osetin, buret va boshqa xalqlar applikasiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Gazlamadan applikasiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalana boshladi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh

yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikasiya bilan kiyim – bosh, uy – ro'zg'or predmetlari bezatilgan.

Faqat XVI asrga kelib rivojlangan qog'ozdan applikasiya qilishni applikasiyaning “yosh” turi deyish mumkin. Qog'ozdan naqsh qirqish bilan o'tmishning mashhur san'atkorlari ham shug'ullanishgan. Masalan, rassom Piter Paul Rubene, daniyalik haykaltarosh Bertel Garvildson ishlari shular jumlasidandir. Mashhur ertakchi Gans Xristian Andersen o'z ertaklari motivlari asoslarida qog'ozdan applikasiyalar qirqqan. Rassom F.P.Tolstoyi XIX asrning birinchi yarmidagi siluet yaratuvchilarning eng mohir ustasi deyish mumkin.

XIX asrda siluet san'ati G.Narbut, Ye.Kruglikov va ko'pgina boshqa rassomlarning ijodida ham o'z aksini topdi. Applikasiya san'ati bilan faqat professional san'atkorlarga shug'ulanib qolmay, balki xalq orasidan chiqqan mohir ustalar ham bu ish bilan shug'ullangan edilar. Ukraina va Belorussiyada qog'ozdan naqshli parda – firanklar qirqishgan. Qog'ozdan kartinalar yaratib, oynalarga yopishtirilgan. Rassom Ye.Ye.Lebedeva ham o'z talantini qog'ozdan applikasiyalar qirqishga bag'ishlagan. Polshada bezak sifatida qirqilgan naqshlar yangi oqlangan devor va shiplarga yopishtirilgan, bu ijod xalqda – visinanki deb ataladi.

Mexnat ta'limida xikoya, tushuntirish, xakida gapirilar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, amaliy mashgulotlarda materialni bayon kilishga ukuv vaktining 20% gacha xikoyaga nisbatan kam kullaniladi.

Suz va kursatishning bir-biriga munosabati ishning tugri va murakkabligiga kura xal etiladi. Masalan kuylak tikish ishini planlashtirish nazarda tutilganda asosiy ish tushuntirishga, choklarni tikishga urgatishga, kursatishga taallukli buladi. Shuni unutmashlik kerakki, biror chokni kanday tikish kerakligi kursatilayotganda bu xarakatning maksadi albatta tushuntirishi lozim.

Kul mehnatni urgatishda yozma instruktaj bot-bot foydalaniladi va u kupkina xollarda ogzaki instruktaj bilan kushib olib boriladi. Darsda instruksion partaning mavjud bulishi ogzaki instruktaj vaktini ancha kiskartiridi.

Instruktaj-mehnat ta'limining samarali metodlardan biridir. Instruktajning maksadi ukuvchilarning amaliy faoliyatlarini uyushtirish va yunaltirish orkali ularning amaliy bilim, kunik va malakalarga ega bulishlarini xamda ularda mehnatga ongli ijodiy yondashishni tarbiyalashni ta'minlashdi.

Instruktaj ogzaki va yozma, indivudual, zveno yoki gruppaviy bulishi mumkin.

1-4-sinfidagi barcha fanlarni o`qitish, o`quvchilarni mehnat qilish va kasb tanlashi bilan uzviy bog`lab tayyorlashdan iborat.

1-4-sinfda mehnat ta'limi fani mazmuni shartli ravishda umumiy mehnat ta'limi tayyorgarligi uning mazmuniga mavjud bo`lgan kasblar atroflicha ma'lumotlari bilan tanishilgan hamda shu yoshga maxsus tayyorgarlik qismlaridan iborat. Bu qismlar har bir dars va mashg`ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo`lib, ularni o`qituvchi va uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuqtai nazaridan hisobga olgan holda, tahmin qilib berish, mehnat ta'limi mashg`ulotlarining aniq maqsadga yo`naltirilgan bo`lishini ta'minlash uchun zarur mehnat ta'limi darslarini 1-4-sinfda umumiy va badiiy mehnat kursi xalq amaliy bezak san'atlari sohasidagi ayrim kasblar asoslari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Bu kurs bo`yicha mashg`ulotlar mazmuni bajarilayotgan mehnat jarayonining ajralmas qismi bo`lgan amaliy eskizlar, jadvallar, rasmlar, naqshlar ishlash va ayrim dizaynyerlik qoidalarini o`rgatishdan iborat. Shu nuqtai nazarga asoslangan holda 1-4-sinf mehnat ta'limi o`quv fani tarkibiga quyidagi kurslari kiradi:

1. Umumiy va badiiy mehnat;

2. Amaliy ishlar tayyorlash tartibi tyexnologik asoslari.

Ushbu yo`nalishning har biri yuzasidan quyidagi mavzular bo`yicha o`zoro uyg`unlashtirilgan nazariy bilimlar byeriladi va amaliy ish ko`nikmalari shakllantiriladi.

1. Matyerialshunoslik asoslari.

2. Asbob-uskunalar haqida ma'lumot va ularni ishlatish usullari.

Milliy hunarmandchilik kasblari bo`yicha umumiy ma'lumotlar va o`zoro turdosh kasblar bo`yicha dastlabki tayyorgarlik hamda ularni 5-sinfda o`zoro uyg`unlashtirilgan holda intyegratsiyalashtirib o`qitish jarayonida amalga oshirib boriladi. 1-4-sinfda ta'lim oluvchilarning ijtimoiy dunyoqarashlarini kyengaytirgan holda olib boriladi. Ular kasb-hunarni ongli ravishda tanlashga yo`naltiriladilar.

Bunda o`quvchilarning tanlagan kasblariga nisbatan qiziqishlari shu kasblar ularning mayillariga muvofiq va qobiliyatlari turlariga mos bo`lishini, kasb tanlashning ongli va mustaqil ravishda amalga oshirilishini, o`quvchilar shaxsiy intilishlari va imkoniyatlarini jamiyat extiyojlari bilan mos kyelishini ta'minlash lozim. Bu vazifa tabiiyki 1-4-sinfga kyelganda hal qilinadi dyeb tushunilmasligi lozim. Aslida kasbga yo`naltirilishlari o`quvchilar bilan 1-sinf dan boshlab barcha fanlar mavzular uzviy bog`liqligi asosida ularga kasblar turlari bilan tanishtirish hamda tabiat, odam-tyexnika, odam-odam, odam-bilim tizim, odam badiy obraz tiplarining qaysi biriga mos ekanligini aniqlash hamda shu yo`nalishida rivojlantirib borib jarayonning natijasi hisoblanadi.

1-4-sinfda o`quvchilarni kasbga yo`naltirish ishlari maxalliy ixtiyojlar va imkoniyatlardan kyelib chiqqan holda, shuningdyek isdiqbol-larini byelgilovchi chambarchas iboralar tavsiyalari asosida hamda maxalliy kasb-xunar kollyejlari va akadyemik litsyeylarning yo`nalishlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. 1-4-sinf mehnat ta'limi darslarida o`quvchida kasb

turlariga oid bilim, ko`nikma va malakalarni maktab joylashgan xududdagi imkoniyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tanlanadigan kasb, asosida shakllantiriladi. Hozirgi sharoitni hisobga olgan holda ko`proq maktablarda mehnat ta'limi mashg`ulotlarining mazmuni asosida milliy hunarmandchilik kasblari yo`nalishida olib boriladi. Yirik sanoat ishlab chiqarish rivojlangan xududlardagi maktablarda mehnat ta'limi darslarida o`quvchilarni shu sanoat sohasiga oid zamonaviy kasblarga yo`naltirish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Hozirgi kunda applikasiya sanatida juda keng tarqalgandir. Applikasiyaning eng yosh turi – flaristikadir.

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash jarayonida o`quvchilar fikr yuritadilar, tasavvur qiladilar, va fantaziyalar yaratadilar. Bu orqali bolalarda mustaqil fikr yuritish ko`nikmalari shakllanadi. Ular applikasiya bilan ishlashda har bir detalni joy – joyiga o`rnatish kerakligini, ularning tartib va ketma – ketlikda o`rnatish kerakligi haqida tushunchaga ega bo`ldilar.

1.3. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash usullari

Boshlang'ich sinflarda applikasiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. applikasiya ijodini rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyaning boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni aktivlashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, formani his qilish, chamalash va rangni sezishni o'stiradi. Rangli qog'oz yoki boshqa materialdan kompozitsiyalar ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Mashg'ulotga o'quvchilarning oldindan tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga qog'oz yozib, o'ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, avtoruchka. Old tomonlariga yelim, qiyqimlar uchun quti, chap tomonlariga ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz naborini qo'yadilar. Har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerak bo'ladigan narsalarni yozib oladilar.

O'quvchilarning ishlayotgan materiallariga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishlarini rejalashtira olishlarini bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari va ish joyini toza saqlashlari kerak.

Barcha ish turlarini albomning o'ng varag'ida bajarish tavsiya etiladi. Sinfdagi ishlar – albomda bajariladi. Ijodiy topshiriqlarni parta, stolga knopkalar bilan mustahkamlangan alohida varaqda bajargan ma'qul.

Yelim bilan ishlaganda ho'l va quruq latta bo'lishi lozim. Ho'l latta qo'lga yuqqan kleysterni artish uchun, quruq'i yelimlanayotgan tasvirlarni ustidan bosish va ortiqcha kleysterni artish uchun kerak.

Applikasiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan va kraxmallangan gazlama bo'laklaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda samon, quritilgan o'simlik, urug', donak va shu kabilardan ham foydalaniladi.

Applikasiya ishlari doimo xotirada saqlanishi hamda majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan ma'lum izchillikda ado etiladi. Istalgan applikasiya syujetini tanlashdan boshlanib, undan keyin applikasiya eskizi, qog'oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo'yish, yelimlash va nihoyat quritish jarayonlari keladi. Oddiy applikasiyalar eskizsiz bajariladi.

Applikasiya qilishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish – applikasiya muvaffaqiyatining garovidir.

Kompozitsiya yordamida figura va predmetlarning fazodagi holati aniqlanadi. Tasvirlanadigan hodisalarning uyg'unligiga erishiladi. Bu maqsadlarda masshtab va proporsiya, ritm yoki simmetriya sistemasi qo'llanadi. Eskizni tuzishda applikasiyaning kompozitsiyaon markazini aniqlash muhimdir. Kompozitsiyaning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qohozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak, bunday qilinganda mazkur turning yo'nalishi buziladi.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan kompozitsiya hosil qilinadi. Agarda bu kompozitsiya ma'qul bo'lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detailarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularni o'rnini qalam bilan belgilab qo'yish kerak.

Yelimlashda yelim fonga emas, detalga suriladi. Yelimni detalning chetiga yaxshilab surish uchun cho'tka yelimlanayotgan detal chetidan chiqib, tagidagi qog'ozga ham tegib o'tishi kerak. Yelimlangan detalning ustiga toza qog'oz yozib, kaft bilan silab tekislanadi. Applikasiyalar odatda qog'ozning buralib ketmasligi, tortilmasligi uchun ustidan yengil bostirib quritiladi.

Boshlang'ich sinfda applikasiya usularida oddiy tasvirlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. turli materiallardan applikasiya usulida ishlangan asarlar namunalari asosida suhbatlar o'tkaziladi.

O'quvchilarga applikasiya usulini bajarish, ularni tushuntirish kerak. Tanlangan namunalar asosida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilib, kuzatib borish kerak. Rangli qog'ozlar, o'simliklar bargi, poyasi. Har bir tabiiy va sun'iy qog'ozlar, materiallardan ishlangan oddiy tasvirlar biror manzarani ifodalashi kerak. Turli buyumlarni bezashga pichoq dastasi, tilla qosh, ayrim kiyimlardagi naqsh elementlari, parket, pel, kafel bilan bezatilgan devor, shaxmat donasi kabilarni tayyorlashda applikasiya usullaridan foydalanish bo'yicha o'quvchilarga dastlabki tushunchalarni berib borish kerak.

O'quvchilarda oddiy fikrlash, turli materiallar bilan ishlashda aniq harakatlar qilish, ko'z bilan chamalash, ranglarni o'zaro munosabatlarni tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatda predmetlar rasmdagi shaklga o'xshashligini, mashina, traktor, samolyotlarning ham ko'pgina qismlari matematik shaklda bo'lishni aytib ko'rsatadi.

O'quvchilr tayyorlagan applikasiya ishlari ona tili va matematika, o'qish darslarida ko'rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkin.

Demak, boshlang'ich sinfda o'quvchilar – eng avvalo faqat mehnat darsi mashg'ulotlari darslaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar va aynan applikasiya bilan ishlash yo'llari to'g'risida bilimlarini oshirib boradilar va o'rganadilar.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLAR MEHNAT DARSLARIDA APPLIKASIYA BILAN ISHLASH ORQALI O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH METODIKASI

2.1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari

Boshlang'ich sinflarda mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Chunki hozirgi paytda boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bu ta'lim-tarbiyaning eng yuqori samaradorligiga erishish demakdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar deganda biz – ta'lim – tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos ko'rinishida qo'llanishini nazarda tutamiz.


Pedagogik texnologiyalardan mehnat darslarida qo'llash – o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda, pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasi deb tushunsak bo'ladi.

Ishda, san'atda, mahoratda qo'llanadigan usullar yig'indisi texnologiya hisoblanib, ta'lim – tarbiya jarayonida eng aptimal variantlardan foydalanib samaradorlikka erishish yo'llari – zamonaviy pedagogik texnologiya deyiladi. Aynan mehnat darslarida applikasiya mavzusini o'tishda ham yuqori samaradorlikka erishishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi.

Aynan applikasiya bilan ishlashda qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin? – degan savol tug'ilishi tabiiy.

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashda “Klasster”, “Aqliy xujum”, “Zinama-zina”, “Bilib oldim, bilishni istayman” kabi bir nechta metodlardan foydalanish mumkin.

“Klaster” metodi – (g’uncha, bog’lan) metodi. Pedagogik didaktik stratigiyaning muayyan shakli bo’lib, u o’quvchilarga ixtiyoriy muammo, mavzular xususiya erkin, ochiq kuylash va shaxsiy fikrlarni bayon etish uchun sharoitlar yaratishga imkon beradi. Mazkur metod turli xil g’oyalar o’rtasidagi aloqalar, bog’liqliklar o’rtasida fikrlar imkoniyatini beruvchi aniqlikni talab etadi. Masalan: 4-sinflarda applikasiya mavzusi o’tilganda uning qanday turlari borligi to’g’risida bilim berish uchun o’qituvchi “klaster” tarmoqlar metodidan foydalanishi samarali. Bunda markazda applikasiya ya’ni quyosh timsolida bo’lsa, uning nurlarida tarmoqlarda esa applikasiyaning turlari turadi. Bu o’quvchilar ko’z o’ngida tez saqlanib qoladi va xotirada yaxshi saqlanib qoladi.



“Aqliy xujum metodi” – muayyan mavzu o’tilganda mavzu yuzasidan muammolarni hal etishda qo’llaniladigan metod sinalib, u mashg’ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish,

hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijodiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga qaratilgan. Har xil savollar berish orqali muammolar yechiladi.

“Aqliy hujum” applikasiya to'g'risida

1. O'quvchilar applikasiya haqida nimalarni bilasiz? – o'quvchilar fikrlarini bildiradilar yoki yozadilar.
2. Uning qanday turlari bor?
3. Applikasiya ishlari bilan ishlashda qanday mehnat anjomlari zarur bo'ladi yoki foydalanamiz?
4. Applikasiya turlari bir – biri bilan nimasi bilan farq qiladi? ... kabi savollar orqali o'quvchilar yuqori bilmga ega bo'ladilar. Bu metod orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin his qilgan holda bayon eta olishlari kerak va albatta o'zlarining ham bildirgan fikrlarini hurmat qilishlari lozim. Bu metod savollarning oddiy va murakkabligiga ko'ra 1-4 sinflarda qo'llash mumkin. Bunda o'quvchining bilish doirasiga qarab tashkil qilinadi. bunda sinf guruh holatga yoki butun jamoa tarzida ishtirok etadi.

“Bilaman, bilishni istayman, bilib oldim” – metodi ham, eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bu metoddan Boshlang'ich sinflarda, 1-4-sinf mehnat darslarining applikasiya mavzusi o'tilganda foydalanish mumkin. Bu metod 3 ta qatordan iborat bo'ladi.

1- qator: bilaman

2- qator: bilishni istayman

3- qator: bilib oldim kabi nomlar bilan ataladi va 1-qatorga o'quvchilar, applikasiya to'g'risidagi bor bilimlarini yozadilar; 2-qatorga bilmoqchi bo'lgan savollarini yozadilar; 3-qatorga esa, dars davomida ochib berilgan, bilmagan savollarining javoblari, ya'ni bilib o'rgangan bilimlari yoziladi.

№	Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1.			
2.			
3.			
4.			

Shunday metodlarning turi ko'p, ularning ham biridan fanga va mavzuga moslab qo'llash mumkin.

Applikasiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish – o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurini, estetik hissiyatini o'stiradi. O'quvchilar ijodiy qobiliyatining o'sishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.

Bundan tashqari Boshlang'ich sinf mehnat darslarida, applikasiya ishlari bilan shug'ullanganda, Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- o'quvchilarda tevarak – atrofdagi narsa va voqyealarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ularni go'zallikni his qila bilishga, tushuntirishga hamda shu his bilan tushunchalarni hayotga tatbiq etishga o'rgatadi;
- badiiy madaniyat ko'rinishlari va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni rivojlantiradi;
- estetik va emosional sezgirlikni o'stiradi;
- badiiy – amaliy malakalarni shakllantiradi;
- o'quvchilarda real narsalarga qarab, applikasiya ishlarida ularni yaratish, xotira va tasavvurlari orqali ko'nikma va malakalar hosil qilish;
- muntazam va maqsadga muvofiq ravishda, yaratish orqali idrok qilishni, ranglarni sezishni ajratishini, fazoviy fikrlashni, fantaziyani, ijodiy vazifalarni aniq obrazlarda hal qilishni rivojlantiradi;

- dekarativ – amaliy san’atning o’ziga xos xususiyatlari bilan barcha o’quv mashg’ulotlarida o’quvchilarda ijodiy qobiliyat, did tasavvurlarni o’stirishga qaratiladi;
- kishilarning munosabatlaridagi go’zalliklarni to’liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalaydi va go’zallik qonunlari asosida ijod etishni o’stiradi. Zotan go’zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga, ta’sir qilib, ma’naviy dunyosini boyitadi.

Applikasiya tasvirlash texnikasining turli formalarini kirkish va ularni fon tarzida kabul kilingan materiallar xisobiga mustaxkamlashga asoslanuvchi turidir.

Applikasiya tushunchasi xususiyatlari va materiallariga kura xilma-xil bajarilishi texnikasining uxshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini uz ichiga oladi. Xar bir material applikasiyasi bajarilish texnikasiga jiddiy ta’sir kursatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, kogoz, limon, daraxlar pustloglari fonga turli yelimlar bilan yopishtiriladi.

Applikasiya – badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidar. Bu applikasiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko’rgazmali qurollar, turli o’yin uchun qo’llanmalar, o’yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar, shu kabilarni yaratishdan keng qo’llash imkonini beradi.

Dekorativ applikasiya – u nashk, gullardan tashkil topib, aloxida-aloxida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli, xodisa, xarakatlar uygunligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bulishi mumkin.

Applikasiya tasvirlash texnikasini turli formalarini qirqish va ularning fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Applikasiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan. Ular applikasiyadan kiyim-bosh, turar joylarini bezatishda ishlatganlar.

Applikasiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yokutlar applikasiya ishida pustlogdan foydalanishgan, buyalgan pustlogdan kilingan applikasiyalar bilan ular utovlarini bzashgan. Xanti-mansi, evenk va boshka shimoliy xalqlari applikasiyada teri, sukno, muyna ishlatishgan. Komi, kozok, kalmik, osetin, buryat va boshka xalqlar applikasiyadan milliy kiyim, uy-ruzgor predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Applikasiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan yoki kraxmallangan bo'lakchalardan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o'simliklar, urug'-danaklar, barglar va shu kabilardan ham foydalansa bo'ladi.

Qog'ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushirilgan-barxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik qog'ozi navlari applikasiya uchun yaroqlidir.

Applikasiya bilan shugullanish ukuvchilarni garmonik rivojlanishida katta axamiyatga ega. Applikasiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, kul mehnati, tasvirni xis kilish, chamalash va rangni sezishni ustiradi. Rangli kogoz yoki boshka materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Applikasiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan izchillikda ado etiladi. Istalgan applikasiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan keyin applikasiya eskizi, kogoz tanlash, kerakli detallarni kirkish, ularni fonga kuyish, yelimlash va nixoyat kuritish jarayonlari keladi. Oddiy applikasiyalar eskizsiz bajariladi.

Applikasiya ishlarini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga karatilishi kerak. Yaxshi uylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bulgan narsalarni joylashtirish – applikasiya muvaffakiyatining garovidir.

Eng oddiy applikasiyalar bu geometrik figuralardan qilingan ornamental applikasiyalardir.

Avval ornament eskizi tuziladi, sungra krakli detallar ulchami va mikdori xisoblanadi. Detallarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni kaysi detaldan boshlash kerakligi aniklanadi.

Applikasiyada avval eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detallarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So'ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

Geometrik shaklli applikasiyalar. Bajarilish texnikasiga ko'ra applikasiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikasiyalardir. 1 va 3 sinf o'quvchilari geometrik shaklli applikasiyani bajarishda qo'ydagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylanani qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.
2. Badiiy didni o'stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.
3. Ayrim predmetlarni detalma-detall tahlil qilib geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar.
4. Bolalarni "ko'p, kam, uzunasiga, kungdalangiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to'rt qismga, teng qismlarga" kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

5. Bolalar ranglar uyg'unlagini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geomterik shaklli applikasiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikasiyalarga ajratish mumkin.

Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash. Ornamnt detallari: turli ulchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naksh diagonal buyicha tuziladi – bunda shakllarni simmetrik joylashtirish kulay. Doirada naksh markazdan radiuslar buylab tuziladi.

Geometrik figuralardan predmetli applikasiyalar.

Bolalarni predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Buni atrofimizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, darxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O'qituvchi istalgan predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda kurib, uning ayrim detallari kaysi geometrik shakllarga uxshashligi, ularni kanday ulchamlarda, kaysilarini kattarok, kaysilarini kichikrok olish, kanday izchillikda joylashtirish kerakligini aniklaydilar.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikasiya bo'yicha juda ko'p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarni har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan shakl paydo bo'lsin.

Bu ishlar o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi. Bolalarda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlik, tartiblik tarbiyalanadi. Uyushqoqlik bilan ishlash ko'rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar tayyorlagan applikasiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning

predmetlari shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

Ko'p rangi applikasiyalar. Ko'p rangi applikasiyalarni qirqish ancha murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikasiyalarni bajarishda fonni tanlash juda muhimdir. Fon ifodalangan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo'rtib turgandek yorqin ko'rinadi. Hammasi o'ylagan asarga bog'liq. Fonda joylashgan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarninig tabiiy joylashishi va o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berish kerak. Bu ishlarning bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar oldindan belgilamay qirqiladi, ayrim detallar esa belgilangan eskizlar bo'yicha qirqiladi.

Ko'p rangli applikatsiyalardan biri dekorativ applikatsiyalardir. Dekorativ applikasiya - naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlangan hodisa harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi manzaralardan iborat bo'lishi mumkin.

Dekorativ applikasiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materillardan olishlari, ayrim elementlarni qo'lda yaratishlari mumkin. Sharq naqshi applikasiyasining bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ applikasiya bir va ko'p rangli bo'lishi mumkin.

Badiiy applikasiyalar. Mavzuli ishlarni yaratish faqat mehnatga emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Mehnat ta'limi darslarida applikasiya ishlarini bajarilish texnikasi o'rganiladi.

Rangdor surat applikasiya mavzusining elementlarini o'quvchilar turli bayramlarga bag'ishlangan (tabriknomalar, ochiq xat muqovasini, yo'l belgilari) ishlarini bajaradilar. Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi. Quticha ochiq tondagi qog'oz fon tarzida tanlanadi. Applikasiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi.

Asarni yaratish ustida ishlagan asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi. Asar xajmiga kura eng katta detal mavzuli detal bulishi kerak.

Syujetli applikasiya. Syujetli applikasiya asariga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab syujetli applikasiya – ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustrasiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo'lsa, tasvirlarni oldindan belgilamasdan qirqish mumkin.

Murakkab syujetli applikasiya ham syujet tanlashdan boshlanadi. Agarda syujetni o'quvchining o'zi o'ylab topgan bo'lsa, bu rasmni chizish malakasiga ega bo'lsa, unda avval syujetni rasmi, so'ngra rasmlar detallari chiziladi va qirqib olinadi. Ayrim detallar turli rangdagi kogozlardan kirkiladi. Agarda ukuvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, u tanlagan rasmdan kora kogoz yordamida nusxa kuchirishi mumkin. Bu rasm ayrim detallarga ajratiladi, xar bir detalni rangli kalam bilan atrofi chizib chikiladi. Ularni kirkib olib, syujet yoki narsa detallari kogozga yigiladi. Syujet yoki predmetning tabiiy ko'rinishiga putur yetmasligi uchun ularni qaysi tartibda yelimlanishi belgilanadi va ishga kirishiladi.

Kuchaytirish va kattalashtirish usuli yordamida rasmlardan kattalashtirib yoki kichiklashtirib applikasiyadan foydalanish mumkin.

Mavzuli applikasiya. Mavzuli applikasiya ma'lum mavzuni aks ettirishi lozim u badiiy asr uchun illyustrasiya, applikasiya plakat bo'lishi mumkin. Badiiy tematik applikasiya ishi predmetlar formasini, asosiy anikliklarni, qismlarning o'zaro aloqasini, manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug'lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko'rsatish kabilarni ifodalashi kerak.

Applikasiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Bu applikasiyadan faqat bezash maqsadlarida ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar va hakoزالarni bezashda ishlatiladi.

Applikasiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikasiya ijodni rivojlantirishda katta yordam beradi tasavvurni boyitadi, kuzatuvchanlik va diqqatni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, chamalash va rangni sezishni o'stiradi.

Applikasiya ishini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy ko'rinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozisiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish applikasiyaning muvaffaqiyatining garovidir.

Tasvirlash lozim bo'lgan narsalar yordamida figura va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uyg'unligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog'ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detailarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Ko'pincha ochiq tondagi qog'oz va fon tanlanadi. Applikasiya mo'ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga ko'ra eng katta element asosiy tematik element bo'lishi kerak.

Namuna tariqasida 1-sinf o'quvchilari 8 – Mart uchun tabriknoma yasashlari mumkin. Bu ishda bolalar andoza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash ko'nikmalarini sinaydilar va rangli qog'ozdan ingichka oq va sariq to'g'ri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qog'ozdan doira qirqsa bo'ladi. Bolalar yasagan gullar turlicha bo'lishi mumkin. Novdalar ham qo'lda qirqiladi.

Suhbatni o'qituvchi “8 Mart kuni” haqida olib boradi va bunda sovg'a masalasini eslatib o'tadi. Eng yaxshi sovg'a o'z qo'li bilan yasagan sovg'adir. Suhbatni mehribon buvijonlarimi onajaonlarimiz, opa-singillarimiz haqida bo'lishi mumkin.

Shundan keyin namuna ko'rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi va ishning borishi belgilanadi.

1. Tabriknoma uchun qog'oz tayyorlanib u ikkiga buklanadi;

2. Ko'k rangdagi qog'ozga to'g'ri burchak chiziladi, uning o'lchami uzunasiga, tabriknoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarimidan 2sm atrofida kattaroq;

3. Ko'k qog'ozdan qirqilgan to'g'ri burchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko'k qog'oz taklifnomani bo'yashda halaqit bermasligi uchun bukish chizig'ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;

4. Endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog'ozni kerakli o'lchamda qirqiladi;

5. Namuna asosida quyosh nuri qirqiladi;

6. Och ko'k va jigar rang qog'ozdan ikkita shox qirqib, namunadagidek yopishtiriladi;

7. Gullar qirqib yopishtiriladi.

Ish ijodiy tarzda bo'lganligi uchun o'quvchilar gullarni shoxlarga o'zlari mustaqil joylashtiradilar. Barglarni o'qituvchi tarqatgan andoza

bo'yicha qirquadilar. Tabriknomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tabrik so'zi yoziladi.

2.2. Mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashga doir bir soatlik dars namunasi

Mavzu: Bahor gullari rasmini rangli qog'ozlarda applikasiya asosida tasvirlash.

- I. Darsning maqsadi:** O'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, o'quvchilarga bahor gullari haqida tushuncha berib, tanishtirib borish.
- II. Dars metodi:** ko'rgazmalilik, og'zaki tushuntirish, suhbat metodi.
- III. Dars jihozi:** Darslik kitob, ko'rgazmali qurollar, qaychi, yelim, karton, rangli qog'ozlar, andoza.

Darsning borishi.

- IV. Tashkiliy qism:** a) salomlashish.
 - b) davomatni aniqlash.
 - v) uyga vazifani so'rash.
 - g) mavzuni mustahkamlash.
- V. Yangi mavzu bayoni:**
 - a) Bahor fasli va gullar haqida savol – javob o'tkazish.
 - b) O'quvchilarni darsga tayyorlash va ularning faolligini oshirish.

Bahor gullari rasmini rangli qog'ozlarda ishlash.

Gullar deydi

Bog' oralab, tog' oralab

Lola gulin terganmisiz?

Namozshomgul, rayhonlarni

Sovg'a qilib berganmisiz?

Atir gul – u, chinni gullar

Gulxayriyu, karnaygullar


O'z bag'riga chorlab deydi.

Guldastalar yasang deydi.


Bahor fasli kishilarga zavq bag'ishlaydi. Bahor faslida ilk shabada esadi, daraxtlar va maysalar yashil tusga kiradi. Sayroqi qushlar yoqimli ovozi bilan sayraydi, tog'lardagi qorlar erib shaldirab oqayotgan suvlar, kishilarga zavq baxsh etadi.


Bahor gullarini aytmysizmi? Ularning shakllari, ranglari, odamlarni maftun etadi. Ayniqsa lolaqizaldoq, binafsha, gulsafsar, momaqaymoq, moychechak, atirgullar kishilarni e'tiborini o'ziga tortadi. Gullar har xil bo'ladi. Uning nomi ham, shakli ham, rangi ham bir – biridan farq qiladi. O'quvchilarga simmetrik joylashgan gullarni qanday rangli qog'ozlardan qirqib olish o'rgatiladi.

“Bahorgi guldasta mavzusida applikatsiya ishlash”
Avval narsalar tasviri rangli qog'ozlardan qirqib olinadi



“Bahorgi guldasta mavzusida applikatsiya ishlash”





VI. Darsni mustahkamlash: Savol – javoblar orqali o'quvchilar tushunmagan joylarini tushuntirish orqali, o'zlari yasagan gullarini ko'rsatish, kamchilik va yutuqlarini aytish orqali mustahkamlanadi.

VII. Darsni yakunlash: Darsga xulosa yasalib, faol qatnashgan o'quvchilr baholanadilar.

VIII. Uyga vazifa: Bahor gullarini mustaqil tarzda rangli qog'ozlardan applikasiya asosida yasab kelish.

4 – sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashga doir bir soatlik dars namunasi.

Boshlang'ich sinflarning to'rtinchi sinfidagi mehnat fonining o'quv dasturlari va dasturlardan o'rin olgan mehnat, fon vositasida axloqiy estetik, mehnatga muhabbat ruhida tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan: o'quvchilr to'rtinchi sinfda biroz murakkab mavzular, ya'ni ertaklar asosida rasmlarni yoki yelkanli qayiqning dengizdagi tasvirini rangli qozog'lar asosida applikasiya usulida ishlash mumkin bo'lgan applikasiya ishlari bilan shug'ullanadilar va o'rganadilar.

“Yelkanli qayiq” mavzusiga bag'ishlangan topshiriqni bajarishda “mozayka” va “applikasiya” usulalridan foydalanish nazarda tutilgan. Dastlab mozayka ishlanadigan qog'oz sirtiga bo'lajak kompozisiyaning zirh tasviri chizib olinadi. Bunda suv va osmon uchun kerakli qismlar qalam bilan chizilib ajratib qo'yiladi. O'qituvchi mozayka va applikasiya usulida bajarilgan rasmlarni o'quvchilarga ko'rsatadi va ularning o'ziga xos afzalliklari haqida so'zlab beradi.

Mozayka usulida bajarilgan rasmlarda tasvirlar har xil ko'rinishlarda yirtilgan mayda – mayda qog'oz bo'laklaridan ishlanadi. Bunda har bir qog'oz bo'laklari orasida qoladigan kichkina tirqishchalar ham rasmga o'ziga xos ko'rinish beradi. Odatda osmon va suv havo rangdagi qog'oz bo'lakchalaridan ishlanadi. Shunga ko'ra osmon uchun och havo rangdagi qog'oz bo'lakchalari, suv uchun esa to'q havo rang tusdagi qog'ozlar tanlanadi. Qayiqning yelkanlari oqligicha qoldiriladi. Qayiqchanning sirti esa och jigarrang yoki sarg'ish jigarrangdagi qog'oz bo'lakchalari bilan yelimlanadi.

“Applikasiya” usulida bajariladigan suratlarda esa ishning bajarish jarayoni birmuncha soddaroq bo'lib, o'quvchilar tayyor bo'laklarni qog'oz

sirtiga yelimlab qo'yadilar. Bunda ham ayrim shartlarga rioya qilish kerak bo'ladi.

O'quvchilr tomonidan tayyorlangan yelkanli qayiqlar tasviridan umumiy ko'rinishdagi katta o'lchamga ega bo'lgan rasm hosil qilish mumkin. Buning uchun qog'ozlar bir – biriga yopishtirilib chiqiladi.

4 – dars.

Mavzu: “Yelkanli qayiqlar” mavzusida applikasiya ishlash.

Darsning maqsadi: O'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini o'stirish. Tasvirlashda qo'llanadigan badiiy materiallar haqidagi tushunchalarni kengaytirish. Applikasiya texnikasi bilan yaqindan tanishtirish.

Darsning metodi: ko'rgazmalilik, suhbat metodi, savol – javob.

Darsning jihozlanishi: Rangli va oq qog'ozlar, yelim, latta, qaychi, yelim surtadigan mo'yqalam. Yelkanli qayiq mavzusida ishlangan applikasiya.

Darsning borishi.

Tashkiliy qism: a) salomlashish.


b) davomatni aniqlash.

v) uyga vazifani so'rash.


g) o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzu bayoni: O'qituvchi darsning boshlanishida bolalarga dengizda suzib yurgan kema va qayiqning suratlarini ko'rsatadi. O'qituvchi ularni kim ko'rganliklarini so'raydi. Bolalar savollarga javob berganlaridan so'ng, o'qituvchi bugun bajariladigan ish mazmuni bilan o'quvchilarni quyidagicha tanishtiradi:

Qayiqcha quyidagi bo'laklardan tuziladi



“Elkanli qayiqlar” mavzusida applikatsiya ishlash



“O’quvchilar, bugun biz suvda suzib yurgan yelkanli qayiq tasvirini applikasiya usulida ishlaymiz. Buning uchun biz oldin qog’ozga dengiz to’lqinini va qayiq rasmini chizib olamiz. U har bir o’quvchida har xil bo’lishi lozim. So’ngra shu chiziq bo’ylab yirtilgan rangli qog’oz parchalarini yopishtirib chiqamiz. Kemaning sirtini och jigar rangdagi qog’ozdan ishlaymiz. Qayiqning yelkanini och havo rangdagi qog’ozdan ishlaymiz”. O’qituvchi shu tartibda kompozisiyani ishlashni ko’rsatganidan so’ng, o’quvchilar ishni mustaqil bajarishga o’tadilar. Dastlab o’quvchilar kompozisiyaning qalamtasvirini chizib olishlari, o’qituvchi ruhsat berganidan so’ng rangli qog’ozlarni yelimlab chiqishga o’tishlari mumkin (7-rasm). Rasm variantlarga ko’ra turlicha bo’ladi. ayrim hollarda rasm daftari o’rniga havo rang qog’ozlar ishlatilsa, ishning ta’sirchanligi yanada oshadi. Bunda osmon tasviri uchun havo rang qog’ozni yopishtirishning hojati qolmaydi. Qayiq va yelkanlarni yirtilgan qog’ozdan tasvirlashda iloji boricha ularni chiziqlari bo’ylab tekislab yopishtirishga ahamiyat berish kerak. Chunki ishning sifati ko’pincha ana shunga bog’liq bo’ladi.

Dars oxirida barcha applikasiya ishlari namoyish etish uchun qo’yiladi va o’quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. O’quvchilar ishlagan applikasiyalardan jamoa bo’lib “Yelkanli qayiq” nomli panno ham tuzish mumkin. Buning uchun bir necha ishlarni yonma – yon qo’yib yelimlash yetarlidir.

Darsni mustahkamlash va yakunlash: savol – javoblar orqali, bajarilgan ishlarni ko’rib chiqish orqali dars mustahkamlanadi. Darsga xulosa yasilib, faol qatnashgan o’quvchilar baholanadilar.

Uyga vazifa: rangli qog’ozlar yordamida mustaqil holda, “yelkanli qayiq” tasvirini applikasiya asosida ishlab kelish.

XULOSA

Boshlang'ich sinf mehnat darsining applikasiya mavzusi orqali ishlar o'rgatish, o'quvchilarni tafakkurini rivojlantiradi, ularning tevarak – atrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi.

Applikasiya ishlari va ular bilan ishlashning usulalri orqali o'quvchilar nafaqat karton va rangli qog'ozlar bilan ishlashni, balki tabiiy materiallar hisoblangan qovun, tarvuz, bodring, mosh, loviya, jo'xori, qovoq urug'i, yeryong'oq. Quritilgan barg va gullar, shuningdek rangli tosh, yog'och parchalari, turli ranglardan foydalanib ishlash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflarda mehnat fani o'quvchilarni mehnatga, yaxshilikka, axloqiy – estetik tarbiyaga, muhim kasb egasi bo'lishga yetaklaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya ishlari va ular bilan ishlashning usullari, turlari va dars namunalari to'g'risida, applikasiya ishlaridan foydalanishning ayrim nazariy va uslubiy asolsilarini yoritishga, ular to'g'risida fikr yuritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida “Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya ishlari va ular bilan ishlashning usullari” haqida ma'lumot berildi. Ushbu bob o'z ichiga boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashning nazariy asoslarini, applikasiya bilan ishlashning usullari va turlarini o'z ichiga oladi.

Shundan kelib chiqqan holda, applikasiya bilan ishlashning turlari quyidagilardir:

- a) Dekorativ applikasiya.
- b) Geometrik applikasiya.
- v) Ornament applikasiya.
- g) Badiiy applikasiya.
- d) Tematik applikasiya.

ye) Mozayka applikasiya.

Bu turlar bir – biridan farqlanishi, mavzusi misollarida ham aks etadi.

Applikasiya bilan o'quvchilar ishlash orqali quyidagilarni anglashadilar:

a) Dekorativ applikasiya – naqsh va gullardan tashkil topib, alohida – alohida tasvir (barg, qoziqorin, mashina, odam, uy va shu kabi) lardan tarkib topuvchi hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi asardan iborat bo'lishi mumkinligini bilib oladilar.

b) Bundan tashqari bajarish texnikasiga ko'ra applikasiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik applikasiya ekanligini anglashadilar. Eng oddiy applikasiya, bu geometrik figuralardan qilingan ornamentli applikasiyadir.

v) Badiiy applikasiya va tematik applikasiyalarni yaratishda o'quvchilar faqat mehnatni emas, balki badiiy tayyorgarliklarini ham ishga solishlarini tushunib yetadilar.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida esa, “Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlashning uslubiy asoslari” joy olgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, applikasiya yasashga doir dars namunalari, qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik texnologiyalar va 1 – soatlik noan'anaviy dars ishlanmasidan iborat.

Bundan tashqari – xulosa, ilovalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ham keltirib o'tilgan.

“Boshlang'ich sinf mehnat darslarida applikasiya bilan ishlash usulalri” mavzusi odatdagi bitiruv malakaviy ishni hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, yoritib berishga harakat qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “O'zbekiston”, 2008 y.
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi. T.: “O'zbekiston”, 2010 y.
3. I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., “O'zbekiston
4. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T., “Sharq” nashriyoti)
5. Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dastur.(Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T., “Sharq” nashriyoti)
6. “Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi”. T.: 1999 y.
7. Mavlonova R., Goroxova O., Ogulidzina L. Mehnat ta'limi metodikasi. T.: “O'zbekiston”, 1986 y.
8. Sheblkin L., Romanina B., Kazakova L. Applikatsionniye raboti v nachalnoye klassa.
9. Shumelevich M.M. Qog'oz va kartondan figuralar yasash. T.: “O'qituvchi”, 1994 y.
10. Mavlonova R. Mehnat 3- sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.:Mehnat 1993.
11. Mavlonova R. Mehnat 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: Mehnat.1995.
12. Mehnat ta'limdan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. «Ta'lim taraqqiyot; IV maxsus son 1999.

13. O`zbyekiston Ryespublikasi umumta'lim maktablarida mehnat ta'limining o`qitilishining taraqqiyotini tizimi (kontsyepsiyasi). Loyiha. Z.M. Yahyoyeva va boshqalar.–T.:1994. 34-64b.
14. O`zbyekiston Ryespublikasi hunar-tyexnika ta'limini rivojlantirish kontsyepsiyasi. A.P. Xudaybyerganov, X. F. Rashidov., - Toshkyent.: 1992, 24-42 byetlar.
15. Hasanov R. Tasviriy san`at (1-sinf uchun darslik). T.: “Yozuvchi”, 2002 y.
16. Hasanov R. Tasviriy san`at va badiiy mehnat. T.: “O`qituvchi”, 1999 y.
17. Egamov N. O`zingiz qirqing va yasang (1-sinf uchun). T.: “O`qituvchi”, 1999 y.
18. X.Sanaqulov ,M.Haydarov “Boshlang`ich sinflarda qog`ozdan amaliy ishlar” 1996 yil
19. Vorobyov A.Sh. “Konstruktorlik va modelleshtirish” T., “O`qituvchi”1989 yil
20. R.Mavlonova “Birinchii sinf mehnat darslari” T. “O`qituvchi” 1986 yil
21. R.Mavlonova “Ikkinchi sinf mehnat darslari” T.”O`qituvchi” 1987 yil.
22. R.Hasanov, H.Egamov “Tasviriy sa`nat va badiiy mehnat”T. “O`qituvchi” 1997 yil.
23. Perevertenv. “O`quvchilarda ijodkorlikni shakillantirish”.T. “O`qituvchi”. 1990y.
24. P.Magzumov. ”O`quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo`yicha bilim va ko`nikmalari sifati”.T. 1994y.